

KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARNI ROLI

Melibayeva Gulxon Nazrullaevna

Qo‘qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası katta o‘qituvchisi

gulhonmelibaeva@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqola tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning strategik o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar kabi asosiy yo‘nalishlarning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida innovatsion infratuzilmaning rivojlanishi, texnoparklar, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash dasturlari va malakali kadrlar tayyorlash jarayonlari o‘rganilgan. Xulosa sifatida innovatsiyalarni tadbirkorlikka joriy qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish, global bozor talablariga moslashuvni ta’minlash va milliy iqtisodiyotni mustahkamlash taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: kichik biznes, raqobatbardoshlik, kichik biznes subyekti, texnoparklar, aksiyalar likvidligi, intellektual resurslar, innovatsion jarayon.

Kirish

Tadbirkorlik iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va modernizatsiyasida muhim omil hisoblanadi. Globallashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida raqobatbardoshlikni oshirishda innovatsiyalar asosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi. Innovatsiyalar kompaniyalarning raqobatbardoshligini oshirish, mijozlar ehtiyojlarini samarali qondirish va yangi bozorlarni egallash imkonini beradi. Ushbu maqola tadbirkorlikda innovatsiyalarning o‘rni va ular orqali raqobat ustunligini shakllantirish jarayonini o‘rganishga bag‘ishlangan.

Hozirgi kunda raqobat shunchaki past narxlar yoki yuqori sifat bilan cheklanib qolmay, mijozlar uchun qiymat yaratish va biznes jarayonlarining samaradorligini oshirishga asoslanmoqda. Innovatsiyalar turli sohalarida, jumladan, texnologiya, mahsulot dizayni, xizmat ko‘rsatish, va boshqaruv usullari orqali kompaniyalarning muvaffaqiyat kalitiga aylangan. Xususan, tadbirkorlar yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish va mijozlarning o‘zgaruvchan ehtiyojlariga tezkor javob berish orqali bozorga moslashadi.

Bozorlarning globallashuvi va raqobatning kuchayishi sharoitida dunyoning yetakchi mamlakatlari hukumatlari mamlakatlar iqtisodiyotini qo‘llab-quvvatlash uchun murakkab tashkiliy va iqtisodiy vositalardan foydalanishga majbur bo‘lmoqda. Bunday vositalardan biri tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun qulay shart-sharoitlarga ega erkin iqtisodiy zonalarini (EIZ)tashkil etishdir. Oxirgi o‘n yillikda Erkin iqtisodiy zonalar mexanizmini faollashtirish jarayonini ma’lum bir mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishini kuzatish mumkin bo‘ldi. Agar 1995 yilda dunyoda 500 ga yaqin zonalar mavjud bo‘lsa, hozir 130 dan ortiq mamlakatlarda 4300 dan ortiq zonalar mavjud bo‘lib, ularda 68 mingdan ortiq ishchi ishlaydi. Bundan tashqari, jahon amaliyoti EIZ faoliyatini samarali tashkil etish nafaqat mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga turtki berish, balki uni jahon yetakchilari qatoriga olib chiqishda ham samarali ekanligini ko‘rsatmoqda¹

¹ Mamurjonovich, U. T. (2024, January). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSİYALARNI RAG‘BATLANTIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINING O‘RNI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 156-167).

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda anʼanaviy jarayonlar bilan birga innovatsion rivojlanish jarayonlariga ham eʼtibor qaratish maqsadga muvofiqligi koʻrsatadi. Shu nuqtai nazardan, xususiy tadbirkorlik, kichik va oʻrta biznes rivojidagi oʻzgarishlar, ularning innovatsion va raqamlashtirish muhitiga moslashuvchanligi, biznes-jarayonlar va biznesmodellarning oʻzgarishi hamda innovatsion va raqamli iqtisodiyot oʻrtasidagi oʻzaro taʼsirlarning ijobiy jihatlarni oʻzlashtira olishi kabilar hozirda har qachongidan ham dolzarbdir²

Innovatsiyalar va raqobatbardoshlik: Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qoʻllash kompaniyalarga yangi bozorlarni egallash va mavjud segmentlarda ustunlikni qoʻlga kiritish imkonini beradi. Masalan, texnologik yangiliklar yordamida xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish orqali raqobatbardoshlardan oldinda boʻlish mumkin. Shu sababli, innovatsiyalar iqtisodiy oʻsishning muhim drayveri hisoblanadi.

Oʻzbekiston sharoitida dolzarblik: Tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Soʻnggi yillarda mamlakatda innovatsion faoliyatni ragʻbatlantirish, texnologiyalarni joriy etish va startap ekotizimini rivojlantirish boʻyicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Oʻzbekistonning global bozor raqobatbardoshligida oʻz ulushini oshirish uchun tadbirkorlik subyektlarining innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish zarur.

Tadqiqot muammosi: Tadqiqotning asosiy muammosi innovatsiyalarni tadbirkorlik faoliyatiga joriy etishda duch kelinadigan cheklovlar va ular orqali raqobat ustunligini shakllantirish mexanizmlarini aniqlashdir. Oʻzbekiston sharoitida bu boradagi asosiy toʻsiqlar moliyaviy resurslarning yetishmasligi, malakali kadrlarning cheklanganligi, va innovatsion infratuzilmaning rivojlanmaganligi hisoblanadi. Ushbu muammolarni hal etish orqali iqtisodiy taraqqiyotning yangi bosqichiga erishish mumkin.

Ushbu tadqiqotning maqsadi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalarning taʼsirini tahlil qilishdir. Tadqiqotda quyidagi vazifalar belgilangan:

Innovatsiyalarning raqobatbardoshlikka taʼsirini aniqlash.

Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli qoʻllash uchun zarur sharoitlarni oʻrganish.

Amaliyotda duch kelinadigan muammolarni va ularni bartaraf etish usullarini tavsiya qilish.

Innovatsiyalarni tadbirkorlikka integratsiya qilish orqali Oʻzbekistonning global iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish imkoniyati mavjud. Shu bilan birga, bu mavzu nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki tadbirkorlikni rivojlantirish mamlakatda ish oʻrinlari yaratish, iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash va aholi farovonligini oshirishning asosiy vositasidir.

Innovatsiyalarni bir nechta asosiy turlarga ajratish mumkin: mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy innovatsiyalar. Har bir turi tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini oshirishda muhim rol oʻynaydi. Yangi yoki takomillashtirilgan mahsulotlarning yaratilishi orqali isteʼmolchilarning talablariga javob beriladi. Masalan, Oʻzbekistonda oziq-ovqat sanoati sohasida amalga oshirilgan texnologik yangiliklar isteʼmolchilarning qoniqish darajasini oshirdi³.

² Imomnazar Egamberdievich Tursunov, & Gayratjon Sultonovich Hamroev (2024). KICHIK VA OʻRTA BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH YOʻLLARI. Academic research in educational sciences, 5 (2), 69-76.

³ Dilnoza, M. (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).

Jarayon innovatsiyalari: Ishlab chiqarish texnologiyalarining modernizatsiyasi orqali resurslar samaradorligi oshadi. Bu turdagi innovatsiyalar ishlab chiqarish tannarxini kamaytiradi va korxonalarni global raqobatda ustunlikka ega qiladi ⁴.

Marketing innovatsiyalari: Yangi reklama strategiyalari va sotish usullarining joriy etilishi orqali iste'molchilarga mahsulotlarni yetkazib berish samaradorligi oshadi. Masalan, onlayn savdo platformalarining rivojlanishi kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratdi ⁵.

Tashkiliy innovatsiyalar: Korxonalarni boshqarish jarayonlarini takomillashtirish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu turdagi innovatsiyalar inson resurslaridan foydalanishni optimallashtirishga yordam beradi.

Innovatsiyalar iqtisodiyotga quyidagi yo'nalishlarda ta'sir ko'rsatadi:

Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish: Innovatsion texnologiyalar va mahsulotlar eksport hajmini oshirish orqali milliy iqtisodiyotni kuchaytiradi.

Ish o'rinlari yaratish: Innovatsiyalar yangi biznes tarmoqlarini shakllantirish va yangi ish o'rinlari yaratishga hissa qo'shadi.

Bozor raqobatini kuchaytirish: Innovatsiyalar bozor muhitida yangi o'yinchilar paydo bo'lishiga zamin yaratadi, bu esa iste'molchilar uchun yanada sifatli mahsulot va xizmatlar taklif qilinishini ta'minlaydi⁶.

O'zbekistonda so'nggi yillarda innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator dasturlar amalga oshirilmoqda. Jumladan:

Texnoparklar va innovatsion markazlar tashkil etilishi: Bu inshootlar tadbirkorlik subyektlari uchun ilmiy-texnologik yutuqlarni amaliyotga tatbiq qilish imkoniyatlarini yaratmoqda. Xorijiy olim L.K. Tereshenko fikricha, "Innovation infratuzilmaga odatda texnoparklar, biznes-inkubatorlar, elektron birjalar, venchur fondlari va boshqa tuzilmalar kiradi. Innovation infratuzilmaning "ishlashi" zarur, bu innovatsiyalarga bozor "talabi"siz va tegishli qonunchilik bazasiz amalga oshirilishi qiyin. Innovation faoliyat uchun infratuzilmani yaratish va ulardan foydalanish masalalari murakkab xarakterga ega bo'lib, ular ko'p jihatdan fan va innovatsiyalar sohasiga, shuningdek, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash sohasiga ta'sir qiladi."⁷

Moliyaviy qo'llab-quvvatlash dasturlari: Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish uchun davlat va xalqaro tashkilotlarning grantlari ajratilmoqda⁸.

Ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlar: Yoshlar orasida innovatsion fikrlashni shakllantirish uchun startup loyihalari va biznes-treninglar tashkil etilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida iqtisodiy tahlil, statistik guruhlash, tizimli va qiyosiy tahlil va boshqa usullar qo'llanilgan.

Tahlil va natijalar

1. Innovatsiyalarning strategik o'rni:

⁴ YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. (2024). *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(Maxsus son), 71-77.

⁵ Xurram o'g'li, X. S. (2023). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI. *WORLD OF SCIENCE*, 6(11), 113-117.

⁶ Nosirova, S. (2024). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI VA OMILLARI. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 11(1), 132-135.

⁷ Лафитский, В.И., Терещенко, Л.К., Едкова Т.А. и др.; отв. Ред. Л.К. Терещенко. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: 2014. – 13 с

⁸ Bahriddin o'g, B. O. R. (2024). O'ZBEKISTONDA MARKAZLASHGAN PUL FONDRLARI TOMONIDAN INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHNI YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA YECHIMLARI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 30(3), 102-110.

Schumpeterning innovatsiyalar nazariyasiga ko'ra, yangi texnologiyalarni joriy etish orqali tadbirkorlar bozorni o'zgartirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Porterning raqobat strategiyalari esa innovatsiyalarning xarajatlarni kamaytirish va mahsulotni differensiyalash orqali raqobatbardoshlikka qanday yordam berishini ko'rsatadi.

2. O'zbekiston sharoitida innovatsiyalar:

O'zbekistonda tadbirkorlikda innovatsiyalarni rivojlantirishda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash dasturlarining samaradorligi oshib bormoqda. Biroq, tadbirkorlarning innovatsion faoliyatga qiziqishini oshirish uchun qo'shimcha rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar zarur.

3. Kadrlar masalasi:

Innovatsiyalarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda bilimli va tajribali kadrlarning mavjudligi muhim ahamiyatga ega. O'zbekistonda bu boradagi muammolarni hal qilish uchun malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini kengaytirish zarur.

Xulosa va takliflar

Tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy qilish orqali raqobatbardoshlikni oshirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadi. O'zbekistonda innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularni amalga oshirish uchun strategik yondashuvlar zarur.

Innovatsiyalar tadbirkorlik faoliyatida yangi imkoniyatlar yaratadi va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Mahsulot, jarayon, marketing va tashkiliy sohalarida amalga oshirilgan innovatsiyalar nafaqat korxonalar faoliyatini takomillashtiradi, balki bozorning global talablariga moslashuvni ham ta'minlaydi.

O'zbekiston misolida innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, texnoparklar, grant dasturlari va ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi bu borada muhim qadamdir. Ushbu imkoniyatlardan samarali foydalanish orqali tadbirkorlar nafaqat o'z bizneslarini kengaytiradilar, balki iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga ham hissa qo'shadilar.

Innovatsiyalarni joriy etishda moliyaviy resurslarni ko'paytirish uchun davlat grantlarini kengaytirish.

Innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlarini kengaytirish.

Malakali kadrlar tayyorlash dasturlarini amaliyotga yo'naltirish.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Mamurjonovich, U. T. (2024, January). ERKIN IQTISODIY ZONALARDA TADBIRKORLIK FAOLIYATIGA INNOVATSIYALAR VA INVESTITSİYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA KLASSTER YONDASHUVINING O'RNI. In *INTERNATIONAL CONFERENCE OF NATURAL AND SOCIAL-HUMANITARIAN SCIENCES* (Vol. 1, No. 1, pp. 156-167).
2. Imomnazar Egamberdievich Tursunov, & Gayratjon Sultonovich Hamroev (2024). KICHIK VA O'RTA BIZNES BOSHQARUVINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. *Academic research in educational sciences*, 5 (2), 69-76.
3. Dilnoza, M. (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik sharoitida oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishning xorijiy tajribasi. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(6).

4. YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING SAMARADORLIGI. (2024). Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 4(Maxsus son), 71-77.
5. Xurram o'g'li, X. S. (2023). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O'RNI. WORLD OF SCIENCE, 6(11), 113-117.
6. Shuxrat O'g'li, S. S. (2024). O'ZBEKISTON KICHIK VA O'RTA KORXONALARIDA TADBIRKORLIK VA INNOVATSIYALARNI RAG'BATLANTIRISHDA INSON RESURSLARINI BOSHQARISH (HR) NING ROLI. TADQIQOTLAR. UZ, 48(3), 85-93.
7. Nosirova, S. (2024). TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY QONUNIYATLARI VA OMILLARI. Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari, 11(1), 132-135.
8. Лафитский, В.И., Терещенко, Л.К., Едкова Т.А. и др.; отв. Ред. Л.К. Терещенко. – М.: Институт законодательства и сравнительного правоведения при Правительстве РФ: 2014. – 13 с
9. Bahriddin o'g, B. O. R. (2024). O'ZBEKISTONDA MARKAZLASHGAN PUL FONDLARI TOMONIDAN INNOVATSION LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHNI YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA YECHIMLARI. Лучшие интеллектуальные исследования, 30(3), 102-110.
10. Мелибаева Г.Н. (2024). ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПУТЕМ ПРИМЕНЕНИЯ МАРКЕТИНГОВЫХ ИННОВАЦИЙ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ МАЛОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА. Экономика и социум, (6-2 (121)), 1215-1220.
11. Mashhura, A., & Davronjon, A. (2023). BUGUNGI KUNDA RAQAMLIY TEXNALOGIYALAR IMKONIYATLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1190-1192.
12. Davronjon, A., & Gulmira, A. (2023). INVEST IN THE BUSINESS OF THE FUTURE: CLOUD COMPUTING. Academia Science Repository, 4(5), 94-101.
13. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 28-33.
14. Nazarali o'g'li, M. S. (2023). THE STUDY OF VALUE-ADDED TAX: KNOWLEDGE FROM THE EU VAT EXPERIENCE AND UZBEKISTAN'S VAT SYSTEM. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 131-135.
15. Otto, M., & Thornton, J. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'I VA AYLANMADAN OLINADIGAN SOLIQ TO'LOVCHILARINI BIR-BIRIDAN FARQLI JIHATLARINI BAHOLASH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 140-143.
16. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
17. Turanboyev, B. (2024). ILG'OR XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA ELEKTRON TIJORAT FAOLIYATINI SOLIQQA TORTISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI. Integration of Economy and Education in the 21st century, 2(2), 1-4.
18. Boburjon, T. (2024). SOLIQQA TORTISHNING EKOLOGIK YO'NALTIRILGANLIGINI KUCHAYTIRISHNING XORIJ TAJRIBASI TAHLILI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 145-150.

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATINI TASHKIL ETISH VA ISHLASH MASALALARI

Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

i.i.farmonov@kokanduni.uz

Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

lionslar9233@gmail.com +9989999972326

Annotatsiya. Zamonaviy sharoitda kompaniyada ichki audit xizmatini tashkil etilishi ushbu kompaniya rahbariyatiga samarali va aniq qarorlar qabul qilish uchun moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida eng shaffof va ishonchli iqtisodiy ma'lumotlarni taqdim etishga imkon beradi, yuqori samarali buxgalteriya tizimini va qoidabuzarliklarning oldini oladi, tarkibiy bo'linmalar hisobotlarining obyektivligi va ishonchliligini tasdiqlaydi, soliqqa tortishni optimallashtiradi.

Аннотация. Создание службы внутреннего аудита в компании в современных условиях позволяет руководству данной компании предоставлять наиболее прозрачную и достоверную экономическую информацию о финансово-хозяйственной деятельности для принятия эффективных и конкретных решений, обеспечивает создание высокоэффективной системы бухгалтерского учета и предупреждения нарушений, подтверждение объективности и достоверности отчетности структурных подразделений, оптимизацию налогообложения.

Abstract. The creation of an internal audit service in the company in modern conditions allows the management of this company to provide the most transparent and reliable economic information about financial and economic activities for making effective and concrete decisions, ensures the creation of a highly effective accounting system and prevention of violations, confirmation of the objectivity and reliability of the reporting of structural units, optimization of taxation.

Kalit so'zlar: ichki audit, ichki nazoratning tashkiliy shakllari, ichki audit xizmati, ichki audit vazifalari, ichki audit samaradorligi.

Ключевые слова: внутренний аудит, организационные формы внутреннего контроля, служба внутреннего аудита, задачи внутреннего аудита, эффективность внутреннего аудита.

Key words: internal audit, organizational forms of internal control, internal audit service, internal audit tasks, internal audit effectiveness.

Kirish

Ichki audit boshqaruv tizimida muhim ahamiyat kasb etib, u ichki nazorat va xatarlarni boshqarish imkoniyatini yaratib hamda kompaniyaning maqsad va vazifalariga qay darajada erishganligini tahlil qilish va baholash elementi va muhim vositasidir.

Ichki audit xizmatini yaratish zarurati "iqtisodiyotning rivojlanish miqyos" bilan bog'liq muammolardan kelib chiqadi. Kompaniya faoliyati ko'lami oshgani sayin ma'muriy apparatga ajratib turadigan boshqaruv nazorat tizimi va faoliyat samaradorligini analitik tahlil etish zarurati kun tartibiga chiqadi. Buni axborot almashinuvi muammosini keltirib chiqaradi va turli boshqaruv bo'linmalarining bir-biriga zid qarorlar qabul qilish ehtimolini oshishi sabab bo'ladi. Shu bilan birga, yuqori rahbariyat tomonidan nazorat qilish qiyinlashadi, bu xatolar va suiiste'molliklar sonini sezilarli darajada oshiradi.